

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot fakulteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida assistenti Raximova Umida tomonidan "Moliya asoslari" fanidan "Budjet tizimi va budjet tuzilmasi" mavzusi bo'yicha tayyorlangan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga

TAQRIZ


O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotni modernizatsiyalash sharoitida davlat moliyasi va uning muhim tarkibiy qismi bo'lgan davlat byudjeti alohida o'rin egallaydi. Davlat byudjeti davlatning qator ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ekologik va boshqa funksiyalarini amalga oshirishning moddiy-moliyaviy asosini tashkil etadi va mamlakat moliya tizimining barcha bo'g'inlari bilan byudjet-moliya qonunchiligi bilan tartibga solinadigan muayyan munosabatlarga kirishadi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini bajarish, iqtisodiyotni barqaror va mutanosib rivojlantirish, jahon bozorlarida mustahkam o'rin egallash, shular asosida izchil iqtisodiy o'sishni ta'minlash, xalqimizning hayot darajasi va farovonligini yanada oshirish borasidagi vazifalarni to'liq va samarali amalga oshirish sharoitida davlat byudjetining amal qilish mexanizmlarini puxta o'rganish har qachongidan ham dolzarbdir. Davlat moliyasi tizimida faoliyat qiluvchi mutaxassislardan davlat byudjet munosabatini to'g'ri va samarali tashkil etish mexanizmlarini puxta bilish va amaliyotda qo'llay olish talab etiladi.

Raximova U. tomonidan ochiq ma'ruza darsi uchun tanlangan "Budjet tizimi va budjet tuzilmasi" mavzusi "Moliya asoslari" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar, ma'ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari bir-biriga bog'langan holda to'liq ko'rsatilgan hamda o'quv-uslubiy jihatdan to'g'ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o'tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
Samarqand filiali "Buxgalteriya hisobi
va statistika" kafedrasida dotsenti, i.f.n.



X.X.Xikmatov

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti Iqtisodiyot-fakulteti "Buxgalteriya hisobi va audit" kafedrasida assistenti Raximova Umida tomonidan "Moliya asoslari" fanidan "Budjet tizimi va budjet tuzilmasi" mavzusi bo'yicha tayyorlangan ochiq ma'ruza darsi ishlanmasiga


TAQRIZ

Davlatning qator ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarini o'z vaqtida va to'liq bajarish ma'lum moliyaviy asosni talab etadi. Bu borada davlat moliyasini boshqarish tizimidagi islohotlar doirasida amalga oshirilayotgan qator chora-tadbirlar, davlat moliyasining mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotida muhim o'rin egallab turganligidan dalolat beradi.

Shu ma'noda etiboringizga taqdim etilayotgan darslikda davlat moliya munosabatlari tashkil qilishning huquqiy asoslari, davlat 4 moliyasini boshqarish, tartibga solish masalalari, davlat byudjeti daromadlari va xarajatlari tizimi, davlat moliyasining holatlari va byudjet taqchilligi, turli soha va tarmoqlardagi davlat korxonalarini tashkil qilish asoslari, shuningdek, davlat moliyaviy nazoratini tashkil qilish masalalari fanning o'quv dasturiga kirgan mavzular doirasida bayon qilingan.

Raximova U. tomonidan ochiq ma'ruza darsi uchun tanlangan "Budjet tizimi va budjet tuzilmasi" mavzusi "Moliya asoslari" fanining fan dasturi va ishchi o'quv dasturi (sillabusi)ga to'liq mos keladi.

Umuman olganda, ochiq ma'ruza dars ishlanmasi yangi interfaol pedagogik texnologiyalar bo'yicha taqdimotlar, ma'ruza matni, test savollari qilingan holda pedagogik faoliyat va o'quv faoliyat natijalari bir-biriga bog'langan holda to'liq ko'rsatilgan hamda o'quv-uslubiy jihatdan to'g'ri ishlab chiqilganligini hisobga olib, talabalarga dars o'tish jarayonida foydalanishni maqsadga muvofiq deb hisoblayman.



"Iqtisodiyot va menejment"
kafedrasida dotsenti, i.f.n.

